

Guliston davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası, Psixologiya fanlari doktori, professor, Xolnazarova Matluba Xolbo‘tayevnaniing taqrizi ostida

**Norbo‘tayeva Ulbo‘sin Hasan qizi**  
**GulDU talabasi**  
**+998948701771**  
[norbotayevaulbosin@gmail.com](mailto:norbotayevaulbosin@gmail.com)  
**Ravshanov Sobir Abdumalik o‘g‘li**  
**GulDU doktoranti**  
**+998881743031**  
[sobirravshanov3@gmail.com](mailto:sobirravshanov3@gmail.com)

---

## KONFLIKTLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy jamiyatda, shaxslar o‘rtasida uchraydigan turli xildagi kanfliktlar haqida, ularning kelib chiqish sabablari hamda bartaraf etish usullari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Konflikt, ziddiyat, nizo, vaziyat, to‘qnashuv, komponent, shaxs, jamoa, ruhiy muloqot, mehnat jamoasi, prinsiplar, tarbiyalanganlik darajasi.

---

## КОНФЛИКТЫ И ИХ ПРИЧИНЫ

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются различные конфликты, возникающие в социальном обществе, между отдельными людьми, их причины и способы устранения.

**Ключевые слова:** Конфликт, конфликт, спор, ситуация, конфликт, составляющая, человек, коллектив, ментальное общение, рабочий коллектив, принципы, уровень образования.

---

## CONFLICTS AND THEIR CAUSES

**Abstract:** This article discusses various conflicts that occur in social society, between individuals, their causes and methods of elimination.

**Key words:** Conflict, conflict, dispute, situation, conflict, component, person, team, mental communication, work team, principles, education level.

---

Ta‘lim muassasalari, keng ijtimoiy jamoalarida shuningdek o‘quvchi-talabalar o‘rtasida o‘zaro nizoli vaziyatlar soni ko‘payar ekan, nizolarni hal qilish bo‘yicha ham shunchalik talab ortadi. Nizolar odatda qarama-qarshiliklardan, o‘zaro kelisha olmaslikdan kelib chiqadi va shaxslar jamoalarda, ularning kuch, qadriyatlar va munosabat nuqtai nazaridan farqlar nizoning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilar-talabalar o‘rtasida kelishmovchiliklar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun nizolarni hal qilishning aksariyat usullari nizolarni ertaroq va ochiq hal qilish munkunligini ta‘kidlaydi. Jamoaning shaxsga nisbatan asosiy ustunligi-bu resurslar, bilimlar va g‘oyalarning xilma-xilligi Biroq, xilma-xillik ham ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Jamoa a‘zolari ichki nizolarni hal qilish tajribalariga, ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari juda muhimdir. Jamoada (sinf jamoasi, norasmiy jamoa va boshqalar) har xil mavqedagi insonlar o‘rtasidagi nizolar ancha murakkab kechadi. Jamoaning rasmiy va norasmiy yetakchilari va ayrim tengdoshlar orasida kelib chiqadigan nizolarda, agar jismonan kuchli bo‘lsa salbiy xulq-atvori va

xatti-harakati bilan o'z atrofiga o'ziga o'xshagan "zo'zavon"ni to'plagan bo'lsa, sinfdagi jismonan kuchsiz, qo'rqish darajasi yuqori, o'ziga ishonchsiz o'quvchilarni ta'qib qilishi, zo'rlik bilan o'ziga bo'ysundirishi, ularni noto'g'ri yo'llarga yetaklashi mumkin. Bugungi kunda zamonaviy axbort maydonidagi harakatlar shu qadar jadal, shu qadar tezkorki, endi ilgari gidek, ha bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi.

Konflikt (lot. conflictus - to'qnashuv) aniq ma'nosiga etibor beradigan bo'lsak, qarama-qarshi yo'naltirilgan maqsadlar, manfaatlar, pozitsiyalar, qarashlarning to'qnashuvi degan ma'noni anglatadi[1]

Konflikt tuzilishi 4 ta turga bo'linadi:

- 1) nizo ob'ekti,
- 2) nizoli tomonlar,
- 3) ijtimoiy muhit, ziddiyat sharoitlari,
- 4) nizo va uning shaxsiy elementlarini sub'ektiv idrok etish.

Konflikt – bu tabiiy holat. Konflikt har doim ham buzg'unchilik yoki zo'ravonlik emas. Konfliktni to'g'ri hal etilsa, u yaratuvchanlik qudratiga ega bo'ladi. Konflikt tomonlar munosabatlarini yanada mustahkamlashi, ularni yangi mazmunda qayta qurishi mumkin. Masalan, o'zbeklar "eru-xotinning urushi, doka ro'molning qurishi" deb bejiz aytishmagan. Oilada er bilan xotin o'rtasidagi ziddiyatlar mavjud bo'lsa ham, ko'p hollarda umumiy manfaatlar ularning tez hal etilishi, manfaatlar asosida tomonlar uyg'unligi vujudga kelishini isbotlaydi. Shunday ekan, konflikt vaziyatni vujudga keltiruvchi turli manfaatlarni o'zaro birlashtirish, ularni muvofiqlashtirish imkoniyati tabiiy mavjud [2]

Konflikt, nizo yoki ziddiyat – bu ayrim alohida olingan shaxs ongida, hamda shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida va guruhlararo o'zaro muloqot va ta'sir paytlarida biror muammo, masala yoki qarashlar borasida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, qarama-qarshi fikr, qarash hamda pozitsiyalarning to'qnashuvi oqibati paydo bo'lgan salbiy hissiyotlarga to'la munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy psixologik xodisa hisoblanadi.[2]

Konfliktologiya (lot. Conflictus - to'qnashuv, qarama-qarshi manfaatlar, qarashlarning to'qnashuvi; jiddiy kelishmovchilik, keskin bahs hamda yunoncha. Logos - ta'limot) - nizolar haqidagi fan. Ushbu to'qnashuvlar:

- 1) sub'ektlar ichida turli xil ruhiy holatlar (ehtiyotlar, qiziqishlar, me'yorlar, qadriyatlar) o'rtasida,
- 2) bir xil yoki turli xil ruhiy holatlarga ega bo'lgan turli odamlar o'rtasida,
- 3) ijtimoiy sub'ektlar orasida: ijtimoiy jamoalar (sanoat, iqtisodiy va boshqalar). .), ijtimoiy institutlar (oila, maktab, transport va boshqalar)[3]

Qarama-qarshilikka kirishayotgan shaxslar, shuningdek, ijtimoiy-tipik pozitsiyadan, boshqacha qilib aytganda, o'ziga xos ijtimoiy fazilatlar hamda xususiyatlarning tashuvchilari, rol egalari va ayrim ijtimoiy guruhlar vakillari sifatida tahlil qilinadi. Ijtimoiy konfliktologiya shaxslararo qarama-qarshiliklar, ehtiyoj yo'nalishlari hamda xulq-atvor motivlari ziddiyatida namoyon bo'ladigan guruhlar hamda shaxsiy manfaatlarni tahlil qilishga ixtisoslashgan bo'lib, har xil

ijtimoiy turlarni (shaxs, ma'naviy va moddiy ne'matlar uchun zaruriy qadriyatlardan mahrum etish) o'rganadi. Ijtimoiy mahrumlik oxir-oqibatda qarama - qarshilikning asosiy sababi hamda manbai ekanligiga ishonishadi.[4]

V. A. Suxomlinskiy maktabdagi nizolar haqida shunday yozadi: “O'qituvchi hamda bola, o'qituvchi hamda ota-ona yoki o'qituvchi va jamoa o'rtasidagi ziddiyatlar maktab uchun katta muammodir. Kopincha mojaro o'qituvchi bola haqida adolatsiz o'ylashi bilan yuzaga keladi. Bola haqida adolatli o'ylang, shundagina hech qanday nizolar bo'lmaydi. Nizolardan qochish qobiliyati o'qituvchining pedagogik donoligining tarkibiy qismlaridan biridir. Mojaroning oldini olish orqali o'qituvchi nafaqat saqlaydi, balki jamoaning tarbiyaviy kuchini ham yaratadi»[5]

Konflikt - bu odamlarning o'zaro urishishi, janjallashishi, kuch ishlatib bir-biri bilan to'qnashishi, so'z aytishish, birovlamini ayblash, haqorat qilish, g'azablanish:, jahl qilib gaplashish, kesatish, birovlarni urishtirish, do'q qilish, qo'rqitishgaharakat qilish, u qilaman yo bu qilaman deb tahdid qilish, to'g'ri so'zlar mazmunini buzib talqin qilish, birovlarning orqasidan gapirish, qasd qilish, birovlariga jismoniy zo'rvonlik o'tkazish, zo'rlash, shantaj, birovlarni oyog'idan chalish, dilsiyohlik, xafagarchilik, nafrat bilan qasos, mensimaslik, kibrli munosabat bildirish, o'zini boshqalardan ustun qo'yish, kek saqlash, nafsoniyatga tegadigan amallar hamda so'zlar ishlatish, birovning har bir so'zi yoki amalidan yomonlik qidirish hamda boshqa shunga o'xshash vaziyatlarni ta'kidlab aytishadi. Mana shu insonlararo munosabatlarda uchrab turadigan barcha salbiy holatlar aslida konfliktlarning turli ko'rinishlari, odamlar o'rtasidagi ziddiyatlarning turli namoyon bo'lish holatlariga kiradi. [6]

Konflikt paydo bo'lishining sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin: ehtiyojlar - sub'ekt faoliyatini rag'batlantiradigan moddiy tanqislik yoki ideal ob'ektlar tomonidan yaratilgan holatlardir. Jumladan:

- manfaatlar- bu qarama-qarshiliklarning to'qnashuv ob'ektiga yo'nalishini ta'minlaydigan va uning nizoli xatti-harakatining namoyon bo'lishiga hissa qo'shadigan ongli ehtiyojlar.
- Qiymatlar - shaxsiyatning ichki tuzilishining u uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan va ong va xulq-atvorning asosini belgilaydigan fazilatlar to'plami.

Qadriyatlar umuminsoniy, madaniy, shaxsiy va boshqalarga bo'linishi mumkin.

Maqsadlar amalga oshirilgan harakatlar olib borishi mumkin bo'lgan natijani anglashdir ideallar - ob'ektning eng yaxshi holatini tavsiflovchi, har bir aniq shaxs tomonidan ijtimoiy va shaxsiy tajribani umumlashtirish asosida shakllanadigan va hayotiy pozitsiyani belgilaydigan ba'zi umumlashtirilgan tasvirlar.

E'tiqodlar - shaxsiy qarashlar, qiziqishlar va ehtiyojlarga muvofiq xatti-harakatlar strategiyasini tanlashni belgilaydigan shaxsiy qadriyatlar tizimidir.[7]

Xulosa qilib aytganda, biz ijtimoiy jamiyatda dunyoqarashlari rang-barang ,xarakter xususiyatlari turli xil bo'lgan insonlar orasida yashayotgan ekanmiz , albatta konflikt yuzaga keladi.Biz bu yuzaga kelgan konfliktlarni o'zaro hamkorlikda,birgalikda kelishib shu bilan bir qatorda , ikki tomon manfaatlarini ham inobatga olgan holda bartaraf etishimiz lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.F. M. Qo'chqarova. Pedagogik konfliktologiya. /darslik/. –T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 216 b.[1],[5]

2. Ijtimoiy psixologiya. O'quv uslubiy majmua . O'.Shukurova. N.B. Hakimova – GulDU. 2022 – 304 bet [2],[3],[4],[7]

3.Pedagogik konfliktologiya [Matnl: укув кулланма / Ahmedova M. -Toshkent: «Donishmand ziyosi» MЧЖ, 2020. - 304-b.[6]